

“Roboland” konstruktori

“Roboland” – bu elektronika va dasturlash yoʻnalishi boʻyicha yoshlarga taʼlim berish maqsadida ishlab chiqilgan konstruktor boʻlib unda 200 dan ortiq elektron qurilmalar mavjud. Bu qurilmalar orqali 44 ta amaliy loyihalarni amlaga oshirsa boʻladi. Masalan, biz kundalik hayotimizda foydalanayotgan koʻplab turdagi texnikalar, telefon, turniket tizimi, aqlli termometrlar, aqlli chiroqlar, uylar, issiqxonalar loyihalarining elektronika va dasturlash qismlarini bajarsa boʻladi. Bundan tashqari ushbu konstruktorda oʻzbek tilida yozilgan qoʻllanma kitob mavjud boʻlib bu orqali oʻquvchilar dastrulash va elektronika asoslarini mustaqil ravishda ham oʻrganish imkoniyatiga ega boʻladilar. Eslatib oʻtish kerakki ushbu qoʻllanma kitob robototexnika boʻyicha oʻzbek tilida yozilgan ilk adabiyot hisoblanadi.

2019 yil 27-dekabr kuni Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yoʻnalishiga oid fanlarni chuqur oʻrganish boʻyicha ixtisoslashtirilgan maktabning yangi binosining ochilish marosimida Robototexnika musobaqalarida 2 karra Respublika chempionligini qoʻlga kiritgan Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetining 4-bosqich talabasi Javoxir Rahimov oʻzining “Roboland” deb nomlangan konstruktori bilan tanishtirdi va Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevdan konstruktorni ishlab chiqarish va yurtimizdagi barcha maktablarga tadbiq qilish boʻyicha topshiriq oldi.